

TARIX DARSLARIDA “SWOT” UNIVERSAL TAHLIL METODI

Karimov Odilbek Raximjonovich*O‘zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi**Farg‘ona akademik litseyi tarix fani o‘qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta’limni zamon talabi darajasida isloh qilishda uning sifatini oshirishda o‘quvchilarni fanga, mavzuga qiziqtirishda diqqatini yig‘ishda foyda jihatlari ko‘p hisoblanadi. Xususan, tarix fanida boblarni takrorlashda hamda oldingi yillardagi fan bo‘yicha egallagan bilimlarini yodga olishda samarali usul sifatida keltirilgan.

Kalit so‘z; “SWOT”, kuchli tarafi, zaif tarafi, imkoniyatlari, tashqi xavflar, tahdidlar.

Mamlakatimizda istiqlolning dastlabki yillaridan boshlab ta’lim-tarbiya tizimini rivojlantirish davlat siyosat darajasiga ko‘tarilib, farzandlarimizning jahon andozalariga mos sharoitlarda zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni egallashlari, jismoniy va ma’naviy jihatdan yetuk insonlar bo‘lib voyaga yetishlarini ta’minlash, ularning qobiliyat va iste’dodi, intellektual salohiyatini ro‘yobga chiqarish, yoshlarimiz qalbida ona-yurtga sadoqat va fidoyilik tuyg‘ularini kamol toptirish borasida ulkan ishlar amalga oshirilmoqda.

Prezident Shavkat Mirziyoyev 20-dekabr kuni Toshkentdagi Kongress-xollda parlamentga [Murojaatnoma yo‘lladi](https://scientific-jl.org/obr). U o‘z chiqishida kelgusi 2023- yilgi «**Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili**» deb nom berishni taklif qildi. «Inson qadri degan g‘oyani hech qachon unutmasligimiz kerak. Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili deb e’lon qilishimiz, agar buni chuqur tahlil qilsak, juda ko‘p o‘ylandik, nimalar qo‘yish mumkin, deb. Albatta, kechagi qilgan ishimiz bilan bugungisining davomiyligi, bardavomligi bo‘lishi kerak. Bardavomlik nuqtai nazardan, yana va yana Inson qadri degan g‘oya yillarga qo‘shilib davom etishi kerak. Shuning uchun „Insonga e’tibor va sifatli ta’lim“ deb nom qo‘ydik», — deya tushuntirdi prezident. «Insonga qachon e’tibor bo‘ladi? **Ta’lim, ta’lim, ta’lim va yana bir marta ta’lim.** Men olti yil oldin

shu masalalarga chuqur e'tibor qilib, birinchi kundan beri ta'limimiz haqida ko'p gapiraman. Agar ta'lim bo'lsa, bilim bo'lsa, sifat o'zgaradi. Ta'lim bo'lmasa, sifat o'zgarmasa, e'tibor ham o'zgarmaydi», — dedi hurmatli yurtboshimiz Mirziyoyev.

Hozirgi kunda hukumatimiz tomonidan uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilish, yangi avlod darsliklarini yaratish va uzluksiz ta'lim tizimini modernizatsiyalashda xorijiy tillami o'qitish va o'rgatishning o'ziga xos jihatlarini hisobga olgan holda pedagogika fanlarini o'qitish alohida ahamiyat kasb etadi. Har qanday davlat ravnaqini belgilab beradigan asosiy omillardan biri kadrlarning o'z sohasi bo'yicha mukammal ta'lim olganligi va uni amaliyotda qo'llay olishi, shaxsning ma'naviy yetukligi, o'zligini anglashi, vatanparvarlik va fidoyilik kabi yuksak xislatlarning rivojlantirilganlik darajasi bilan bog'liq.¹


Bizga ma'lumki, tarix fani ham qiziqarli, insonning jamiyatdagi faoliyatidagi saboq olishida bir omil bo'lishi bilan birgalikda, murakkab hamda ma'lumotlar va faktlarni xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Bularni o'quvchilarga yanada qiziqarliroq va tushunarliroq bo'lishida turli dars usullaridan, yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish maqsadga muvofiq. Shunday dars usullaridan biriga, xususan universal tahlil metodlaridan biriga to'xtalmoqchiman.

“SWOT” universal tahlil metodi.

Biror –bir davlatning yutuq va kamchiliklarini tahlil etiladi.

“S”-kuchli tarafi	“W”- zaif tarafi
“O”- imkoniyatlari	“T”-tashqi xavflar

¹ Umumiy pedagogika. Qism I: darslik / O.Musurronova [va boshq.]. -Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2020. - 3 b.



Ta'lim jarayonida darsning quyidagi turlari ajratib ko'rsatilgan:

- aralash darslar;
- yangi materiallar bilan tanishish darslari;
- bilimlarni mustahkamlash va takrorlash darslari;
- o'rganilganlarni umumlashtirish va tizimlashtirish darslari;
- ko'nikma va malakalarni ishlab chiqish va mustahkamlash darslari;
- bilimlarni tekshirish darslari;

Aralash (kombinatsional) darslar. yoki murakkab tuzilishga ega bo'lgan ushbu dars jarayonida o'qituvchi quyidagi kombinatsiyani qo'llashi mumkin: uy vazifalarini tekshirish va o'quvchilar bilan savol-javob, yangi materialni o'rganish, bilimlarni mustahkamlash, o'quvchilar bilimlarini tekshirish va baholash, uyga vazifa berish. O'quvchilarning yangi materiallar bilan tanishish darsi yoki yangi

bilimlarni berish (o'rganish) darsida o'qituvchi rahbarligida o'quvchilari mustaqil ish olib boradilar, o'qituvchi darsning tuzilishi va olib borilishini quyidagicha ta'minlaydi: yangi materialni o'rganish uchun asos bo'lgan avvalgi materialni takrorlash, o'qituvchining yangi materialni va darslik bilan ishlashni tushuntirishi, bilimlarni tekshirish va mustahkamlash, uyga vazifa berish.

Bilimlarni mustahkamlash va takrorlash darsida o'qituvchi darsning asosiy mazmunini ilgari o'zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlashga qaratadi. O'qituvchi asosiy e'tiborini o'rganilgan mavzularni takrorlash tarzida mashg'ulot olib borishga qaratadi. Tuzilishi bo'yicha bunday darslarni o'qituvchi quyidagi bosqichda tashkil etadi: o'quvchilarning bilish qobiliyatini va tafakkurini tekshirish, og'zaki va yozma mashqlarni bajarish, topshiriqlarning bajarilishini nazorat qilish, uyga vazifa berish.

O'rganilganlarni umumlashtirish va tizimlashtirish darslarida bevosita o'qituvchi rahbarligida o'rganilgan o'quv materiallaridan murakkab savollarni takrorlash va

tizimlashtirish asosida o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilgan bilimlarning mavjud kamchiliklari to'ldiriladi va o'rganilayotgan yangi mavzuning muhim g'oyalari ochib beriladi. O'rganiilganlami umumlashtirish va tizimlashtirish darslarini o'qituvchi o'rganilgan

mavzuning, bo'iim yoki o'quv kurslarining yakunida o'tkazadi.²

Ushbu ma'lumotlarga tayangan holda har bir o'qituvchi dars mavzusidan, o'rganilgan bo'lim yoki bobdan kelib chiqib, darsda turli metodlardan foydalanishi mumkin. Masalan, bahs-munozara, suhbat, intellektual o'yin, tahlil kabi. Xususan, yoritmoqchi bo'lgan metodimiz "SWOT" universal tahliliy metodi hisoblanadi. Ushbu atama ingliz tilidan olingan bo'lib, Strengths – kuchli tarafi, weaknesses-zaif tarafi, opportunities- imkoniyatlari, threats - tahdidlar

Bu universal tahlil metodida biron-bir davlat to'g'risidagi mavzular tugagandan so'ng, tahlil qilinadi. Bunda o'quvchi erkin fikrlashi, ijod qilishi, tahlil qilishi mumkin. Xususan, darslikdan foydalangan holda davlatning kuchli tarafi, zaif tarafi hamda imkoniyatlarini bemalol yozishi mumkin. Ushbu davlatga har taraflama fikrlab, tahlil qilib tashqi tahdidlar, xavf-xatarlarni esa mustaqil o'z dunyoqarashi va bilimidan kelib chiqib, yozadi. Buni o'qituvchi boshchiligida umumiy yoki yakka tartibda izohlanadi.

Bunday dars usullari va texnologiyalari albatta o'qituvchining bilimi, zehni hamda tashabbuskorligini ko'rsatadi. Bu o'quv yurtida sinflar yoki boshqa guruhlar ortasidagi musobaqaga ham aylanishi mumkin. Bu albatta darsga va fanga innovatsiyani hamda kreativlikni ko'rsatadi.

O'zbekiston

“S”-kuchli tarafi -qulay strategik joylashuvi -Markaziy Osiyoni o'rtasidaligi -boy tarixiy merosi	“W”- zaif tarafi -dengizga to'gridan-to'g'ri chiqa olmasligi -ekologik muammosi
--	--

² Xoliqov A. A. Pedagogik mahorat. Darslik / A. A. Xoliqov; O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. - T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2011, -205 b.

-demografik holati -foydali qazilma boyliklari -intellektual salohiyati	-hududga nisbatan aholi zichligi -Afg'oniston muammosi
“O”- imkoniyatlari -tabiiy qazilma boyliklaridan oqilona foydalanish -intellektual salohiyatni fan va texnika taraqqiyotida samaradorligini oshirish -yoshlar katta potentsialligi -mexnatsevar xalqi	“T”-tashqi xavflar - Buyuk davlatlar manfaati - Ekstremizm - Terrorizm - Narkobiznes -

Kreativ darsi ijodiy metodologik tuzilishiga ko‘ra an’anaviy darsdan farq qiladi va o‘zida dars maqsadini qamrab oluvchi bloklari bilan kreativ ta’limning maqsadlarini amalga oshiradi. Ijodiy darsning tuzilishi mantiqan ta’limni haqiqatda

rivojlantiruvchi jarayonga aylantirishni ko‘zda tutadi. Ta’limning birinchi navbatda insonparvarlik maqsadlarini ko‘zlagan holda ta’lim faoliyati tuzilishida ma’lum o‘zgarishlar olib boriladi.³

Demak, biz ushbu ulkan maqsadga erishimiz uchun ta’limni sifatini oshirish, bunga har bir o‘qituvchi yetuk salohiyatli bo‘lishi, o‘z fanini sevishi, ta’lim-tarbiyaning yangi shakllari, vositalari va texnologiyalarini mustahkam egallashi, xorijiy tillarni bilishi hamda rivojlangan davlatlarning ta’lim usullaridan xabardor

³ R .A.Mavlonova, N.H.Rahmonqulova, Umumiy pedagogika . -T .: «Fan va texnologiya», 2018, 210 b

bo‘lishi, bulardan milliyligimizga xoslarini keng tatbiq etishi, eng asosiysi o‘qituvchi yangilik yaratuvchi ijodkor bo‘lishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR;

1. Mirziyoyev Sh. M Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent. O‘zbekiston. 2017
2. Mirziyoyev Sh. M 20-dekabr kuni Toshkentdagi Kongress-xollda parlamentga Murojaatnomasi
3. Umumiy pedagogika. Qism I: darslik / O.Musurnonova [va boshq.]. -Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2020.
4. R .A.M av lo n o v a , N.H.Rahmonqulova,Umumiy p ed ag o g ik a . -T .: « F a n v a texnologiya», 2018
5. Gazeta.uz